

## SO'Z , BO'G'IN VA TOVUSHLAR

*Nahanova Kulfina Abdixashimovna*

*Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani*

*3- umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada 1-sinf o'quvchilarida So'z va bo'g'in, Bo'g'in , tovush haqida tushuncha hosil qilish usullari va ularni bir-biridan farqlashga yordam beradigan ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Bo'g'in , tovush, so'z, bog', dala, meva, sabzavot, uy hayvonlari, yovvoyi hayvonlar, topishmoqlar.

**Mashg'ulot maqsadi:** *Ta'limiy maqsadi:* fanning elementar sohasiga oid, o'quv dasturlaridan chetda qolib ketadigan mavzular haqida bilim berish.

*Tarbiyaviy maqsadi:* o'quvchilarning aqliy tafakkurini oshirish, milliy dinyoqarashini kengaytirish, manan yetukligini tarbiyalash

*Rivojlantiruvchi maqsad:* o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini oshirish, fanga bo'lgan qiziqishini oshirish, zamonaviy texnika vositalrini o'rganishga ko'nikma va malaka hosil qilish

#### **Kutilayotgan natija:**

**O'quvchilar mashg'ulot yakunida quyidagilarni uddalashlari lozim;**

- 1.Mavzu bo'yicha bilimga ega bo'lishlari kerak
2. O'quvchilarning mustaqil ishlashga izlanuvchan bo'lishga o'rgatish.
- 3.Olgan bilimlarini qo'llay olish

#### **Tashkiliy qism.**

O'quvchilarni Mashg'ulotga tayyorligini tekshirish .

#### **Mashg'ulot bayoni .**

Ekranda itning vovullashi , qo'ng'iroq chalinishi , sharning yorilishi tasvirlari chiqadi . Bular tovushlar . Insonlar ham tovushlar orqali muloqot qiladilar ya'ni so'zlashadilar . Tovushlar talaffuz qilinadi va eshitiladi .

Bog' tasvirlangan . Bog'da kishilar mevalarni termoqdalar . Olma, anor , olcha , shaftoli , olxo'ri , limon , ananas , banan , xurmo , uzum rasmlari ekranda navbat bilan chiqadi va bo'g'inga bo'lib talaffuz qilinadi .

Mashg'ulotlik bilan ishlash . O'quvchilarga darslikdagi meva yig'im-terimiga oid rasmlar asosida savollar berib hikoya tuziladi .

Masalan: Mana bog' . Bog'da mevalar pishdi . Mashg'ulotlikda berilgan nok , uzum , behi , olxo'ri , shaftoli so'zlari bo'gin tovushlarga ajratiladi .

“Kim ko'p terdi ? ” o'yinini o'tkazish .

O'quvchilar mevalarni savatga, sabzavotlarni esa qutiga joylashlari kerak. Mevalar haqida topishmoqlar aytiladi va o'quvchilar tomonidan javobi topiladi. Kichkina dekcha, Ichi to'la mixcha. (Anor)


Anor so'zini bo'g'inga bo'lib, nechta bo'g'in va tovush borligini aniqlaymiz  
A-nor : 2ta bo'g'in, 4 ta tovush ( a, n, o, r ) dan iborat.

Mashg'ulotda nimalarni bilib oldingiz ?

- 1.Mevalarga misollar keltiring
- 2.Mevalar nimasi bilan foydali.

Oo tovushining talaffuzini analitik-sintetik tovush metodi orqali tushuntiriladi.

b) Oo tovushi unli tovush hisoblanib, o'pkadan chiqayotgan havo og'iz bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramay chiqadi va cho'ziq talaffuz qilinadi: Oooo...



d) Mashg'ulotlikdagi rasmlar yuzasidan suhbat o'tkazish.

Oy, osh, olov, olma, olcha. Olov so'zi necha bo'g'in?

Birinchi bo'g'in qaysi tovush bilan boshlangan?

O tovushi so'zning qayerida kelgan ?

c)Dam olish daqiqasi .

G'ozlar baland uchdilar

Yana uchib ketdilar .

Ko'lmakchaga qo'ndilar

U yon , bu yon qarashib

Yana uchib ketdilar .

Mashg'ulotlik bilan ishlash .

Mashg'ulotlikdagi so'zlar o'qib beriladi, o'quvchilar kuzatib boradilar.  
Rasmda qaysi jonivorlarni ko'ryapsiz?  
Bu jonivorlar qayerda boqiladi?  
Olma so'zi necha bo'g'in?

- 1.Ot, toychoq haqida nimalarni bilasiz?
- 2.Qaysi hayvonlarni uy hayvonlari deb ataymiz?

**Uyga vazifa : Mashg'ulotlikdagi so'zlarni o'qib kelish .**

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, O'zbekiston, 2016.-56 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib – intozom va shaxsiy javobgarlik – har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak
3. Ona-tili va O'qish savodxonligi darsligi.